

Xovos havas maskaniga aylanmoqda



Prezident Shavkat Mirziyoyev joylarda amalga oshirilayotgan bунyodkorlik ishlari, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi bilan tanishish maqsadida 18-iyul kuni Sirdaryo viloyati Xovos tumaniga tashrif buyurdi. Davlatimiz rahbari dastlab Xovos tumani markazida amalga oshirilayotgan bунyodkorlik ishlari bilan tanishdi.

Bugungi kunda Xovos shaharchasida 27 mingdan ziyod aholi istiqomat qiladi. Bu yerda oxirgi ellik yil davomida biron ta ko?p qavatli uy qurilmagan. Odamlar eski, tor, zax uylarda yashab kelgan. Infratuzilma inshootlari ham og?ir ahvolga kelib qolgan, sizot suvlarning yuqoriligi aholi yashash sharoiti yanada yomonlashishiga olib kelgan.

Prezidentimiz joriy yil 19-fevralda viloyatga tashrifi chog?ida tuman markazini qayta qurish, infratuzilmani yaxshilash bo?yicha mutasaddilarga topshiriq bergan edi. Uning ijrosi doirasida 2019-yil 7-mayda Vazirlar Mahkamasining Xovos tumani markazini rivojlantirishga oid qarori qabul qilindi.

Ayni paytda maxsus ajratilgan hududda kompleks qurilish ishlari amalga oshirilib, 30 ta ko?p qavatli uy qurilmoqda. Jami kvartiralar soni 760 tani tashkil etadi. Ularning 600 tasi arzon, 160 tasi tijorat kvartiralaridir.

10 ta tijorat uyining 1-qavatida savdo va maishiy xizmat ko?rsatish obyektlari bo?ladi. Shuningdek, 150 ta bir qavatli uylar bунyod etilmoqda. Uylarni joriy yil kuzda foydalanishga topshirish rejalashtirilgan. Zamonaviy infratuzilmaga ega yangi turar joylar aholining ijtimoiy sharoitini yaxshilab, hayot sifatini oshiradi.

Bundan tashqari, mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlari binolari, Davlat xizmatlari agentligi, tijorat banklari, maktab, istirohat bog?i, xotira maydoni, kinoteatr, kutubxona, masjid, bozor, savdo va maishiy xizmat shoxobchalarida ham qurilish ishlari jadal olib borilmoqda.

Prezident qurilishda ishlatilayotgan materiallarning narxi va sifati bilan qiziqlidi. Mahalliy lashtirish darajasini oshirib, ularning narxini yanada kamaytirish choralarini ko?rish kerakligini ta?kidladi. Urbanizatsiya nuqtai nazaridan tuman kelajagini bugundan o?ylash, zarur joylarga kommunikatsiya tarmoqlari tortish, aholini ish bilan ta?minlash va bo?shagan yerlardan samarali foydalanish bo?yicha topshiriqlar berildi.

Endi yangi ish o?rni yaratishga e?tibor qaratishimiz kerak. Toki yangi uyga ko?chib

o'tadigan yurtdoshlarimiz doimiy daromad manbaiga ega bo'lsin, dedi davlatimiz rahbari.

Shu yerda Prezidentimizga Sirdaryo viloyati, xususan, Xovos tumanida ichimlik suvi ta'minoti va oqova tizimini rivojlantirish, "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyatni tomonidan Mirzaobod tumanida buniyod etilayotgan parrandachilik, bog'dorchilik, sabzavotchilik va poliz ekinlari majmuasi, "Xavfsiz shahar" konsepsiysi doirasida Xovos shahrida jamoat tartibini saqlash bo'yicha hamkorlikda tashkil etiladigan xizmatlar, joriy yilda tumanda tuziladigan kichik biznes subyektlari haqida ma'lumot berildi.

Xususan, keyingi yillarda 1 ming 164 kilometr suv quvuri yotqizilgani, 57 ta suv tarqatish stansiyasi va boshqa inshootlar qurilgani qayd etildi. Shu va galdagi ishlar natijasida 2020-yil boshida viloyat aholisining ichimlik suvi bilan ta'minlanishi 88 foizdan oshadi. Mirzaobod tumanida buniyod etilayotgan parrandachilik, bog'dorchilik, sabzavotchilik va poliz ekinlari majmuasida minglab yangi ish o'rni yaratiladi.

Joylarda jinoyatchilikni kamaytirish, oldini olishda ichki ishlar va prokuratura organlari hamkorlikda ishlab, oldingidek tuman yoki viloyat kesimida emas, balki mahalla kesimida vaziyatni tahlil qilishi kerakligi, Xovos tumanida yirik ishlab chiqarish majmularining yo'qligi inobatga olinib, kichik tadbirdorlik subyektlarini rivojlantirish, mavjud imkoniyat va salohiyatdan samarali foydalanish zarurligi alohida ta'kidlandi.

Davlatimiz rahbari tuman markazidagi aholining turmush sharoiti bilan tanishdi.

Shavkat Mirziyoyev Xovos tumanidagi "Saxovat" fermer xo'jaligi dalasida bo'lib, g'o'za rivojini ko'zdan kechirdi.

"Bek klaster" korxonasiga qarashli mazkur xo'jalikda joriy mavsumda g'alladan 455 tonna hosil olinib, 314 million so'mdan ziyod sof foyda ko'rildi. Bo'shagan maydonga eksportbop dukkakli ekinlar ekilgan. Hozir 50 hektar maydonda g'o'za parvarishlanmoqda.

Fermerlar "Sardoba" suv ombori qurilgani, zararkunandalarga qarshi kurashish uchun Sirdaryo viloyatiga 10 milliard so'mdan ziyod mablag' ajratilgani natijasida eng dolzarb masalalar hal etilib, yuqori hosil yetishtirilayotganini ta'kidladi.

Dalaga chiqishdan maqsad nima o'zi? Daromad topish! Daromadni esa qo'shimcha hosil ta'minlaydi. Shuning uchun terimgacha har bir tupga kamida beshtadan ko'sak, gektariga besh sentnerdan paxta qo'shishga harakat qilish kerak, dedi Shavkat Mirziyoyev.

Shu yerda viloyat tumanlari va sektorlar rahbarlari, nuroniyalar, fermer va tadbirdorlar

bilan uchrashuv bo?ldi. Unda qishloq xo?jaligi va kichik biznesni rivojlantirish, aholi salomatligini mustahkamlash, jinoyatchilikning oldini olish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida so?z bordi.

Joriy yil fevral oyidagi tashrif davomida ishlab chiqilgan, umumiyligi 2,2 milliard dollar bo?lgan 2 yillik hududiy investitsiya dasturini bajarish doirasida birinchi yarim yillikda o?tgan yilning shu davriga nisbatan 2 barobar ko?p kapital qo?yilmalar o?zlashtirilgan.

Yangi shahrida qiymati 600 million dollar bo?lgan, yiliga 400 ming tonna ammiak va 660 ming tonna karbamid ishlab chiqaradigan kimyo zavodi mamlakatimiz iqtisodiyotida muhim o?rin tutuvchi majmua bo?lishi qayd etildi.

Sirdaryo issiqlik elektr stansiyasi energobloklarini modernizatsiya qilish, 2020-2023 yillarda mazkur stansiya yonida har biri 1 ming 300 mega-vatt quvvatga ega bo?lgan 2 ta yangi issiqlik elektr stanitsiyasini qurish, "Farhod" gidro elektr stansiyasini modernizatsiya qilish va "Sardoba" suv omborida kichik GES qurishning ahamiyati ta?kidlandi.

Ushbu elektr stansiyalaridagi ishlar yakunlanganidan keyin viloyatdagi mavjud quvvatlar 2 ming 774 mega-vattga, elektr energiya ishlab chiqarish hajmi 23,5 milliard kilovatt soatga oshadi. Eng muhimi, yiliga 2,5 milliard kub metr tabiiy gaz, qariyb 500 million dollar mablag? tejaladi.

Sirdaryo viloyatida bu yilgi paxta hosili uchun 73 ming hektar maydonga chigit qadalgan. Bahor seryog?in kelgani oqibatida ayrim maydonlar buzilib, qayta urug? ekilgan.

Viloyat va soha mutasaddilariga qoloq maydonlarning har bir konturida nazoratni yo?liga qo?yib, biostimulyatorlar bilan ishlov berish, barcha agrotexnik tadbirlarni tizimli tashkil etish bo?yicha topshiriqlar berildi.

Paxtaning xarid narxi o?tgan yilgiga nisbatan qariyb 1,3 barobarga ko?p paytirilgani fermerlarning manfaatdorligini oshirgani qayd etildi.

Davlatimiz rahbari yirik sanoat korxonalari bo?lmasidan viloyatda yalpi hududiy mahsulotni o?stirish, aholini ish bilan ta?minlashning asosiy manbai kichik biznes bo?lishi kerakligini ta?kidladi.

Viloyatda jinoyatchilikning oldini olish bo?yicha yangi tizim ishga tushgan. Unga asosan, Guliston shahrida 4, Sirdaryo tumanida 2 ichki ishlar bo?limi ochilib, ular tarkibida, shuningdek, qolgan tumanlar ichki ishlar bo?limlarida xotin-qizlar bo?yicha inspektorlar lavozimi joriy etilgan. Natijada viloyatda jinoyatchilik soni o?tgan yillarga nisbatan 38

foizga kamaydi.

Ikki yil avval Sirdaryo viloyati tibbiyat yo'nalishida qoloq hududlardan edi. Prezident topshirig'i bilan bir yil ichida viloyat kardiologiya, narkologiya dispanserlari, Guliston, Mirzaobod tumanlarida, Shirin shahrida shifoxonalar foydalanishga topshirildi. Umuman, 33 tibbiyat obyekti uchun 47 milliard so'm mablag' ajratildi. 2019-yilning o'zida viloyat endokrinologiya va teri-tanosil kasalliklari dispanserlari, Guliston shahar tug'ruq majmui qurib bitkazildi. Sirdaryo, Xovos tumanlari yuqumli kasalliklar shifoxonasi, Boyovut tuman shifoxonasi va ko'p tarmoqli poliklinikasi, Guliston shahar ko'p tarmoqli poliklinikasi foydalanishga topshirildi.

Viloyatdagi tibbiyat muassasalari 2018-yilda 1 million dollarlik tibbiy jihozlar bilan ta'minlangan bo'lisa, 2019-yilda shu maqsad uchun 4 million dollar mablag' ajratildi.

Dastlab Boyovut tumani va Guliston shahrida namuna tariqasida tashkil etilgan tibbiy xizmat ko'rsatish tizimidan endilikda viloyat miqyosida foydalilmoxda. Barcha tibbiyat muassasalari internet tarmog'iga ulanib, elektron poliklinika, elektron navbat tizimi yo'lga qo'yilmoqda. Viloyatda tibbiy sug'urta bo'yicha ham ilg'or tajriba o'zlashtirilmoqda.

Davlatimiz rahbari viloyatda jinoyatchilikning, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlar orasida huquqbazarliklarning oldini olish, aholi salomatligini ta'minlash, ta'lim tizimini takomillashtirish, kichik biznesni rivojlantirish, buniyodkorlik ishlari ko'lamini kengaytirish kabi masalalar bo'yicha zarur topshiriqlar berdi.

Davlatimiz rahbarining viloyatlarga safarlari hamisha ulkan yangilanishlarni boshlab beradi. Ular natijasida xalq farovonligini yuksaltirish, iqtisodiyotni rivojlantirish, madaniy-ma'rifiy hayotni boyitish, shaharu qishloqlar qiyofasini o'zgartirishga xizmat qiladigan yirik loyihalar amalga oshiriladi. Havas maskaniga aylanib borayotgan Xovos tumanı shu fikrning yana bir yorqin dalili bo'ladi.

[O'zA](#)